

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“FALSAFA VA MA'NAVIYAT ASOSLARI” KAFEDRASI

“Milliy istiqlol g'oyasi” fanidan

**“Jamiyat taraqqiyotining g'oya va mafkuralar bilan o'zaro
bog'liqligi” mavzusini o'rganish bo'yicha uslubiy
maslahatlar**

(Institutning bakalavr bosqichi talabalari foydalanishi uchun mo'ljallangan)

Toshkent-2009

Tuzuvchi: siyosiy fanlar nomzodi H.O. Yorqulov

MAVZUNI QUYIDAGI REJA ASOSIDA O'RGANISH TAVSIYA ETILADI:

Kirish.....	4
1. “G’oya”, “mafkura” tushunchalari va ularning mohiyati.....	5-11
2. Ijtimoiy hayotda mafkuraning ahamiyati va g’oyasizlik, g’oyaviy bo’shliqning salbiy oqibatlari.....	11-19
3. Jamiyat va sivilizatsiyalar rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan bunyodkor g'oyalar va mafkuralar	20-21
4. Vayronkor g’oya va mafkuralarning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri.....	21-25
Xulosa.....	25-26
Mavzuni o’rganish bo’yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro’yxati.....	27

KIRISH

Har bir davlat yoki jamiyat taraqqiyotga yuz tutishi uchun o'zida ma'lum bir maqsadni ifodalagan g'oyalarga, jamiyatni uyushtira, safarbar qila oladigan darajada ishonтира oluvchi mafkuraga ega bo'lishi kerak. Bunga tarixda misollar juda ko'p. Aksincha mafkuraviy zaif, bunyodkor g'oya atrofida jipslashmagan jamiyat tanazzulga yuz tutgan, ayirmachilik g'oyalari tufayli mamlakat porakandalikka uchrab ichki nizolar, urushlar avj olgan, xorijiy mamlakatlar bosqiniga qulay sharoit yaralgan. Bu esa jamiyatda kishilar taqdirida moddiy va ma'naviy yo'qotishlarga olib kelgan. Ushbu mavzu bo'yicha uslubiy maslahatlar jamiyat taraqqiyotiga g'oya va mafkuralar qay darajada ta'sir ko'rsatishi, mafkuralarining tarixiy roli nimadan iborat ekanligini tushunib olishda talabalar nimalarga e'tibor berishi kerakligiga bag'ishlanadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "...hozirgi vaqtda dunyoda ikki qarama-qarshi qutb barham topgan bo'lsada, turli xil maqsad-manfaatlarni ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvi to'xtagani yo'q. Ochiq aytish kerakki, bu tortishuvlardan ko'zlangan asosiy maqsad – inson, avvalombor, yoshlar qalbini egallash, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongiga, uning sezgi tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, uni o'z dunyoqarashiga bo'ysundirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe qilish. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham ko'ra dahshatlidir"¹. Shu sababli bugungi kunda ma'naviy-mafkuraviy tarbiyaga ehtiyoj kuchaymoqda. Mafkuraviy tarbiya jarayonlarida talabalar g'oya va mafkuralar, ularning bunyodkor va vayronkor ko'rinishlari haqida bilimga ega bo'lishlari, mafkuraviy bo'shliq, g'oyaviy zaiflik, mafkuraviy parokondalik, mafkuraviy tahdidlarning oqibatlarini bilib olishlari maqsadga muvofiq.

Shuning uchun "Milliy istiqlol g'oyasi" fani mavzularini talabalarimiz tomonidan chuqur o'zlashtirilishiga katta e'tibor berish va ta'lim berish usullarini doimo takomillashtirib borish zarur bo'ladi. Ana shu maqsadni amalga oshuvida, bu fan bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishga zaruriyat har doim mavjud. Ana shu zaruriyatdan kelib chiqqan holda ushbu uslubiy maslahatlar tuzildi. Unda darslik va qo'llanmalarda mavjud materiallarga qo'shimcha materiallar ham berilgan. Ularni o'rganish talabalarimizning mazkur fandan bilimlarining yana ham mustahkam bo'lishiga yordam beradi, - degan umid bildiramiz.

¹ Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin ("Tafakkur" jurnali bosh muharririning savollariga javoblar) - Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz 8-tom. – T.: "O'zbekiston", 1998. 85 b.

I. “G’OYA”, “MAFKURA” TUSHUNCHALARI VA ULARNING MOHIYATI

Talabalar Milliy istiqlol g’oyasining jamiyat taraqqiyotidagi o’rni va roli, milliy o’zlikni anglashdagi ahamiyatini tushinib olishi uchun avvalombor, g’oya va mafkuralar haqida tushunchaga ega bo’lishlari hamda g’oya va mafkuralarning jamiyat taraqqiyotiga turli tarixiy davrlarda qanday ta’sir etganligi haqida bilimga ega bo’lishlari zarur. Buning uchun esa g’oya va mafkuralarning mazmun mohiyatini anglab etishlari kerak.

G’oya deb o’zida ma’lum bir maqsadni ifodalagan, mana shu maqsad yo’lida jamiyat a’zolarini, millat vakillarini, davlat fuqarolarini, uyushtira oladigan, maqsad sari ularni safarbar eta oladigan fikrga aytiladi. G’oya oddiy fikrdan farq qilib jamiyatda ma’lum bir ijtimoiy guruhning maqsad-muddaolarini ifodalashi hamda ularning manfaatlariga xizmat qilishi, tarixiy davrga mos kelishi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lishi, ijtimoiy qo’llab quvvatlanishi zarur. Ushbu xususiyatlari bilan g’oya oddiy fikrdan farq qiladi. Unda ifodalangan maqsadlarni xarakatga keltiruvchi kuchlar yordamida amalga oshirish orqali g’oya moddiy kuchga aylanadi. G’oyalarni amalga oshirishda jamiyatdagi ijtimoiy ishonch muhim ahamiyatga ega. G’oyalarning kelib chiqishi insonlarning turmush tarzini belgilab beruvchi tabiiy shart-sharoitlar bilan ham bog’liq bo’ladi. Masalan, Osiyoda tabiiy shart-sharoit sug’orma dehqonchilikni talab qilishi, kanallar, sug’orish inshootlari qurish zarurati jamoa bo’lib yashashga xizmat qiluvchi g’oyalarning rivojlanishiga olib keldi. Bunda kishilarni jamoat ishlariga uyushtirishda davlatning etakchilik roliga bo’lgan ehtiyoji ko’zga tashlanadi. Kanallar qazish, yo’llar, ko’priklar, masjid, madrasa, turli ma’muriy inshootlarning qurilishi jamoat hasharlari va har yillik davlat majburiyatlarini keltirib chiqardi. G’arbiy Evropada esa ekinlarning ekib o’stirilishida yog’ingarchilikning etarli bo’lishi, Osiyoga qaraganda namchil, salqin ob-havoning bo’lishi xususiy er egaligining rivojlanishiga bu o’z navbatida induvalizmning rivojlanishiga olib keldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkin:

Birinchidan, g’oya tabiiy, tarixiy shart-sharoitlardan kelib chiqib ilgari surilgan inson tafakkurining mahsulidir.

Ikkinchidan, g’oya jamiyatda ma’lum bir ijtimoiy guruhning manfaatlarini o’zida ifodalagan, o’zida yangilikni tashuvchi fikrdir.

Uchinchidan, oldin g’oya paydo bo’ladi, undan keyin g’oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo’ladi.

G’oyalar jamiyatda ma’lum bir **funktsiyalarni** bajaradi. Bular quyidagilar:

G’oyalar o’zida ma’lum bir maqsadni ifodalaydi;

Shaxs, jamiyat, ijtimoiy guruh, partiya va boshqalarni muayyan maqsad yo'lida birlashtiradi, uyushtiradi;

G'oyada manfatlari ifodalangan ijtimoiy guruhlarini muayyan maqsad yo'lida faoliyatga undaydi, safarbar qiladi;

G'oyalar muayyan mafkuraning asosi bo'ladi.

Ma'lumki jamiyat turli maqsad, dunyoqarash, e'tiqodga ega bo'lgan ijtimoiy guruh, qatlamlardan tashkil topadi. Jamiyatda yashayotgan ijtimoiy guruhlarining maqsad muddaolari, manfatlari aynan bir biriga mos kelmaydi. Shu bilan birga aynan bir xil fikrlaydigan, bir xil dunyoqarashga ega bo'lgan shaxslarni ham topish qiyin. Shuning uchun insoniyatning tarixiy rivojlanish jarayonlarida xilma xil g'oya va mafkuralar yaratilganligini ko'ramiz.

Shu o'rinda talabalar qanday turdagi va shakldagi g'oyalar borligi va ularning mazmun-mohiyatini ham bilib olishlari zarur. *G'oyalarning turlari ko'p, ularni mazmuni va namoyon bo'lish shakliga, qanday maqsadlarni ifodalashiga va g'oyalarni amalga oshirishda xarakterga keltiruvchi kuchlar kimlar ekanligiga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin.*

«- ilmiy g'oyalar;

- falsafiy g'oyalar;

- diniy g'oyalar;

- badiiy g'oyalar;

- ijtimoiy-siyosiy g'oyalar;

- milliy g'oyalar;

- umuminsoniy g'oyalar va hakoza»¹.

1. Ilmiy g'oyalar - fan taraqqiyotining samarasi, ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan, turli fan sohalarining asosiy tamoyillari ustuvor qoidalarini tashkil qiladigan ilmiy fikrlardir. Fan taraqqiyoti uzluksiz va cheksizdir. Bu jarayonda amaliyotda tasdiqlanmagan, eskirgan qarashlar yangi ilmiy g'oyalar bilan o'rin almashaveradi.

Shu o'rinda talabalar kimyo sohasiga oid qanday ilmiy g'oyalarni bilishlarini fikirlab ko'rishlari lozim.

2. Falsafiy g'oyalar har bir falsafiy ta'limotning asosini tashkil etadigan, olam va odam to'g'risidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardir. Ular bizni o'rab turgan dunyoni bilish jarayonida kishilik jamiyatining taraqqiyoti mobaynida to'plagan bilimlarni umumlashtirish, inson hayotining ma'no-mazmuni, uning baxt-saodati kabi masalalar ustida mulohaza yuritish asosida shakllanadi².

Insoniyat tarixida turli xalqlarning aql-zakovat sohiblari, dono faylasuf va ilohiyotchilari turfa xil g'oyalar yaratganlar.

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar (Izohli ko'rgazmali vositalar to'plami). –T.: “Yangi asr avlodi”. 2001. 11-12 b.

² Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: “Yangi asr avlodi”. 2001. 27-29 b.

3. **Diniy g'oyalar** deb, har bir diniy ta'limot va oqimning asosini, diniy iymon-e'tiqodning negizini tashkil etuvchi aqidalarga aytiladi. Ibtidoiy dinlar har bir narsaning jonli ekani, jonning abadiyligi, but va sanamlarning, tabiiy jism va hodisalarning ilohiy quvvatga egaligi to'g'risidagi qarashlarga asoslangan edi. Masalan, hindlarning diniy tasavvurlariga ko'ra jon ko'chib yuradi, bu hayotda u insonda bo'lsa, keyingi hayotda boshqa jonzotga o'tishi mumkin. Ilohlarning ko'pligi haqidagi fikrga tayanadigan politeizm dinlari vaqti kelib **monoteistik** - yakkaxudolik g'oyasi asosidagi dinlarga o'z o'rnini bo'shatib bergan.

Yakkaxudolik g'oyasi milliy dinlarda (masalan, iudaizmda), ayniqsa jahon dinlari - xristianlik va islomda o'z ifodasini yaqqol topgan. Xususan, islom dinida Allohning yagonaligi g'oyasi asosida uning barcha aqidalari, ruknlari, talab va majburiyatlari shakllangan.

4. **Badiiy g'oyalar** - adabiyot va san'at asarining asosiy ma'no – mazmunini tashkil etadigan, undan ko'zlangan maqsadga xizmat qiladigan etakchi fikrlardir. Ular hayotdan olinadi, badiiy talqinlar asosida bayon etiladi, o'quvchida muayyan ta'surot uyg'otadi. "Qahramon"larni sevish, ularga ergashish hollari ham shu asosda ro'y beradi.

5. **Ijtimoiy - siyosiy g'oyalar** har bir xalq va umuman bashariyatning orzu-umidlarini, maqsad-muddaolarini ifodalaydi, erkin hayot va adolatli tuzumni tarannum etadi.

G'oyani moddiylashtiruvchi, amaliyotga aylantiruvchi kuch kim ekaniga qarab, sinfy g'oya, milliy g'oya, umumxalq g'oyasi, umuminsoniy g'oyalar ham mavjud bo'lishi mumkin. Albatta, muayyan bir xalq ommasini ma'lum bir tarixiy sharoitda ezgu harakatga undaydigan g'oya mazmunan umuminsoniy bo'lishi ham yoki tor manfaatlarni ko'zlaydigan sinfiy g'oya jamiyat va inson manfaatlariga zid, tajovvuzkor bo'lishi ham mumkin.

Talabalar qanday bunyodkor va vayronkor g'oyalar borligini ham bilishi zarur. G'oyalar qanday maqsadni o'zida ifodalashiga qarab ezgu, bunyodkor yoki buzg'unchi, vayronkor ham bo'lishi mumkin. Bunyodkor g'oyalar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi, jamiyat va insonni ezgullikka undaydi. Ozodlik, tinchlik, Tenglik, do'stlik, hurfiylik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, mustaqillik, adolat, hamkorlik, birdamlik, ma'rifatparvarlik xalqparvarlik, insonparvarlik kabi g'oyalar bunyodkor g'oyalarga misol bo'ladi.

Vayronkor g'oyalar jamiyat, xalq va davlatlarning tanazzuliga sabab bo'ladi, g'ayriinsoniy maqsadlarga xizmat qiladi. Mustabidlik, terrorchilik, jaholatparastlik, millatchilik, vatansizlik, bosqinchilik, aqidaparastlik, irqchilik, mahalliychilik, yovuzlik kabi g'oyalar vayronkor g'oyalarga misol bo'ladi.

G'oyalar mafkuralarga asos bo'lib xizmat qiladi. Mafkura so'zi arab tilidan olingan bo'lib o'zbek tilida nuqtai nazarlar, qarashlar, e'tiqodlar tizimi,

majmui degan ma'noni bildiradi. Lekin ilmiy tushuncha sifatida mafkura atamasining ma'nosi ancha keng. Faylasuflar tomonidan mafkuraga berilgan ta'riflar nihoyatda ko'p, shunday bo'lsada ularning barchasida mafkuraga jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmuidir, - deb ta'rif beriladi. Demak, **mafkura** - muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning, jamiyatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir. Mafkura so'zi g'arb mamlakatlarida ishlatiladigan ideologiya so'ziga to'g'ri keladi. Ideologiya atamasi yunoncha ideya – g'oya va logos – ta'limot so'zlarining birikishidan vujudga kelgan bo'lib g'oyalar haqidagi ta'limot ma'nosini bildiradi. Ideologiya so'zi 1797 yilda Frantsuz inqilobi davrida Antuan Destyu de Grasi tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

Talabalar ijtimoiy hayotda mafkuralar ma'lum bir vazifalarga ega ekanligini bilib olishi maqsadga muvofiq. Har qanday mafkura: a) muayyan g'oyani odamlar ongi va ruhiyatiga singdirish; b) aholining turli guruhlarini birlashtirish; v) ko'zlangan maqsad va niyatlarga erishish uchun odamlarni safarbar etish; g) ularni ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish; d) aholini, ayniqsa, hayotga kirib kelayotgan yosh avlodni g'oyaviy tarbiyalash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish; e) boshqa mafkuraviy va g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishdek bir qator vazifalarni bajaradi.

Mafkuraning bu vazifalari o'zining mazmun mohiyatiga ko'ra jamiyatni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun Siyosiy hokimiyat ham jamiyatni boshqarishda siyosiy hokimiyat resurslari, ya'ni hokimiyat istaklarini boshqalarga o'tkazishga yordam beruvchi usul va vositalar turlari - kuch ishlatish resurslari, ijtimoiy, iqtisodiy, axborot, meyoriy resurslar qatori mafkuraviy resurslardan ham foydalanadi. Mafkura ham ma'lum bir bilimlar tizimidir, lekin u o'zining funktsiyalariga ko'ra fandan farq qiladi. Agar fanning funktsiyasi – haqiqatni izlash bo'lsa, mafkuraning funktsiyasi aholining ommaviy siyosiy ongini egallash, unga jamiyatning bugungi va kelajakdagi taraqqiyotini baholash, o'zining mezonlarini joriy qilish, siyosiy makonda kishilar mo'ljal qiladigan maqsad va vazifalarni belgilashdir. Mafkura u yoki bu ideallar va qadriyatlarni targ'ibot qilish bilan chegaralanib qolmay balki fuqarolar, partiyalar va boshqa siyosiy tuzilmalarning maqsadga muvofiq faoliyatini rag'batlantirish bilan ham shug'ullanadi. Mafkura o'zining siyosiy funktsiyalarini bajarishi bilan jamiyatni umummilliy manfaatlar asosida ongli ravishda ishlab chiqilgan maqsadlari negizida jipslashtirish va birlashtirishga intiladi.

Mafkurada bosh g'oya asosiy maqsadni ifodalaydi. Unga olib boruvchi yo'l siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalarda o'z ifodasini topadi. Masalan islom dinida Allohning yagonaligi bosh g'oya. Allohga ishonch, e'tiqod, Muhammad (s.a.v)

allohning rasuli ekanligini, farishtalar borligini, qur'on muqaddas kitob ekanligini tan olishni, diniy farzlarni va boshqalarni og'ishmay bajarishni talab etadi. Siyosiy sohada davlat rahbari bosh imom ham bo'lishi, huquqiy sohada shariat, fiqh, odat kabi huquqiy me'yorlarning bo'lishida islom mafkurasining turli sohalarga ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Ijtimoiy hayotdagi barcha sohalarda islom tartib qoidalarining o'rnatilishi yagona allohga ishonch, e'tiqodni mustahkamlashga yo'naltirilgan va bu musulmonlarning hatti harakatlari, hayot tarzi, intilishlarini belgilab beradi. Islom ta'limoti uzoq tarixiy davrlarda teokratik monarxiyalarda yoki islom dini asosiy mafkura sifatida qabul qilingan mamlakatlarda jamiyatni boshqarishda hokimiyatlarga mafkuraviy kuch bag'ishlab kelgan.

Talabalar milliy istiqlol g'oyasining bosh g'oyasini ham bilishlari zarur. Milliy istiqlol g'oyasida "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish" asosiy bosh g'oya hisoblanadi. Ya'ni shu g'oyada asosiy maqsad ifodalangan, shu maqsad yo'lida O'zbekiston fuqarolari birlashtiriladi, safarbar etiladi, davlat siyosati ishlab chiqiladi. Bu g'oya mazmunida mustaqillikni mustahkamlash vazifasi o'z ifodasini topgan. Bosh g'oyada ifodalangan maqsadga erishishda esa "yurt tinchligi", "Vatan ravnaqi", "Millatlararo totuvlik", "diniy bag'rikenglik", "ijtimoiy hamjihatlik", "komil inson" kabi asosiy g'oyalar muhim ahamiyatga ega. Bu g'oyalarda jamiyat a'zolarining orzu istaklari, manfaatlari ifodalanganligi uchun ularga yosh avlodning ishonchi, e'tiqodi shakllanishi kerak bo'ladi.

"Insoniyat tarixida turli-tuman mafkuralar mavjud bo'lgan. Turli xalqlar va ijtimoiy kuchlarning g'oyaviy rahnamolari, mutafakkir va arboblari, o'zlarining manfaat va maqsadlaridan kelib chiqib, mafkuraviy ta'limot va dasturlar ishlab chiqqanlar. Mafkuralar muayyan diniy, falsafiy ta'limot asosida yaratiladi, ma'lum ilmiy karash va axloqiy tamoyillarga tayanadi. Mafkuralar o'z mohiyati va ta'sir kuchiga ko'ra jamiyatni birlashtirishi yoki uni bir-biriga qarama-qarshi taraflarga bo'lib yuborishi, davlatlatning jahondagi obro' va mavqeini oshirishi yoki tushirishi, xalqlarni yuksaklikka ko'tarishi yoki tanazzulga duchor etishi mumkin. Yuksak maqsadlar, bunyodkor g'oyalarga asoslangan mafkuralar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo'ladi, ma'naviyatni yuksaltiradi, insonlarni ulug'vor ishlarga safarbar etadi. Ozodlik, erkinlik, mustaqillik, tinchlik, hamkorlik g'oyalari asosida shakllangan, ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkuralar bunyodkorlik xususiyatiga ega bo'ladi.

Vayronkor g'oyalar asosida shakllangan mafkuralar esa jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'ladi, millat va xalqlarni asoratga soladi. Bunday mafkuralar, uz mazmun-mohiyatiga ko'ra hukmron, mustabid, tajovuzkor, bosqinchilik, ekstremistik, aqidaparastlik shakllarida namoyon bo'ladi."¹

¹ Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. – T.: Akademiya, 2007. 185-186 b.

Yuksak g'oyalarga asoslangan, manfaatlar va fikrlar xilma-xilligini e'tirof etadigan mafkuraviy tizimlar o'z sohiblarini taraqqiyotga eltadi. Tor milliy yo sinfiy talab-ehtiyojlarni boshqa xalqlar yoki guruhlar hisobiga qondirishini niyat qilgan mafkuralar oxir-oqibat barbod bo'ladi, o'z tarafdorlarini tanazzul va halokatga duchor etadi.

Shu o'rinda talabalar yagona mafkuraning yakkahokimligi haqida ham tushunchaga ega bo'lishlari kerak. Yagona mafkuraning yakkahokimligi muayyan davlat, jamiyat yoki bir guruh davlatlarda yagona mafkuraning to'la hukmronligini unga xos tamoyillarning o'zgarmas aqidalar tarzida jamiyat hayotida qat'iy va mutloq tartibda o'rnatilishini ifodalaydi.

Yagona mafkura yakkahokimligining mohiyati shundaki, bunda biron-bir mafkuraviy tizim yagona ilmiy, eng adolatli, jamiyatdagi muayyan qatlam manfaatlarini ifoda etuvchi mafkura deb e'lon qilinadi. O'zining mohiyati yoki biron bir jihati bilan undan farq qiluvchi g'oyalar, qarashlar, mafkuralar yot va dushman mafkuralar sifatida qaraladi. Fikrlar, g'oyalar xilma-xilligi inkor etiladi.

Oqibatda, millionlab kishilarda yagona fikrga moslashish, mutelik, loqaydlik, boqimandalik, mahdudlik, o'zga g'oyalarga hadiksirab qarash ruhiyati shakllanadi. Jamiyatning ma'naviy rivojiga, ilm-fan ravnaqiga jiddiy zarar etkaziladi. Aslida bunday yagona mafkura yakkahokimligi ma'lum bir ijtimoiy guruh manfaatlarini ro'yobga chiqarish, mustamlakalarda g'oyaviy, mafkuraviy qaramlikni, mutelikni kuchaytirish kabi yovuz niyatlarda amalga oshiriladi, davlat mafkurasiga aylanadi. Ijtimoiy hayotning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va jamiyat hayotini, fikrlar erkinligini bo'g'adi. Sobiq sovet ittifoqidagi komunistik mafkura, Germaniyada Gitler hokimiyatga kelgandan keyin fashizm mafkurasining natsizm ko'rinishi yakka hukmron mafkuralarga aylandi. Ularning tarixda qanday oqibatlarga olib kelganligini maktab darsliklaridan barcha o'quvchilar bilishadi.

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasiga nazar tashlansa, aksariyat ilg'or davlatlarda umuminsoniy kadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslangan mafkuralar amal qilmoqda. Masalan, neoliberalizm, neokonservatizm, sotsial demokratiya va boshqa mafkuralar. Ularda tinchlik va taraqqiyot inson hamda jamiyat kamolotiga xizmat qiladigan umuminsoniy g'oyalar ustuvordir. Shu bilan birga, inson ongida yangicha dunyoqarash va tafakkur uslubi shakllanayotgan hozirgi davrda muayyan kuchlarning mafkura maydonida hukmronlik qilishga, o'z ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan intilishi kuchayib bormoqda. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va terrorizm, irqchilik va ekstremizm mafkuralari shular jumlasidandir. Xususan, terrorchilik turli shakllarga kirib, kuchli moddiy asosga ega bo'lib, mafkuraviy xavfi ortib bormoqda. Shu bilan birga, e'tiqod umumiyligiga asoslanish (masalan, panislomizm), etnik birlikka urg'u berish (masalan, panslavyanizm, peneronizm, panturkizm) va yagona

ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy makonda yashash natijasida yuzaga kelgan bog'liqlik asosida (masalan, pansovetizm, panamerikanizm) yakka mafkuralar hukmronligini ta'minlash, shu yo'l bilan jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinishlar ham bor.

Shu o'rinda talabalar Prezidentimiz I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch asarida" ta'kidlab o'tgan: "...bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o'zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun «Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish» niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko'zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o'z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyat kasb etadi"¹, - degan fikrlarining mohiyatini tushinib olishlari kerak bo'ladi. Aynan ma'na shu "Erkinlik va demokratiya niqobi ostida" o'z manfaatlariga mos keladigan g'oya va mafkuralar tarqatilmoqda yoki diniy missionerlik, diniy ekstremistik harakatlari iqtisodiy, mafkuraviy jihatdan qo'llab-quvvatlanayapdi, xorij ommaviy axborot vositalari yordamida ob'ekt qilib olingan mamlakat (jumladan, O'zbekiston) haqida noto'g'ri ma'lumotlar tarqatilayapdi va hakoza.

Mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinishlardan maqsad nima ekanligini talabalar bilib olishlari maqsadga muvofiq. Buning uchun ular Prezidentimizning: "...ayrim qudratli davlatlar tomonidan muayyan mamlakatlarga, avvalambor, er osti, er usti boyliklariga ega bo'lgan hududlarga nisbatan olib borilayotgan ana shunday g'arazli siyosatni dunyoning ayrim mintaqalarida tinch hayotning izdan chiqishi, hokimiyat tepasiga aynan o'sha davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarning kelishi bilan bog'liq misollarda ko'rish qiyin emas"², - degan fikrlariga diqqatlarini qaratishlari zarur.

II. IJTIMOIIY HAYOTDA MAFKURANING AHAMIYATI VA G'OYASIZLIK, G'OYAVIIY BO'SHIIQNING SALBIIY OQIBATLARI

Ijtimoiy taraqqiyot aniq fikr, g'oya, mafkuralar bilan bog'liq bo'ladi. Jamiyat mafkurasiz mavjud bo'la olmaydi. Inson va jamiyat oldiga ma'lum bir maqsadning qo'yilishi va uning g'oya, mafkuralarda ifodalanishi taraqqiyotga asos bo'ladi. Prezidentimiz "Tafakkur" jurnali Bosh muharririning savollariga javoblarida "Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qaerdaki mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008. 116 b.

² O'sha manba. 116 b.

erda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin”¹, – deb ta’kidlagan edilar. Shuning uchun insonlar ongida mafkuraviy bo’shliqqa yo’l qo’yib bo’lmaydi. Inson moddiy ne’matlarga qanday ehtiyoj sezsa xuddi shunday ma’naviy ehtiyoji ham bo’ladi. Va bu ehtiyoj doimiy ravishda jamiyat o’z oldiga qo’ygan umumiy maqsadga olib boradigan bunyodkor, ezgu g’oyalar bilan to’ldirib borilmas ekan, jamiyat taraqqiyotiga zid fikrlar, qarashlar qabul qilinaverishi mumkin.

Shuning uchun mafkuraviy bo’shliq sabablari va uning oqibatlarini tarixiy misollarda ko’rib o’tish talabalarni bu mavzuni teran o’zlashtirib olishiga yaqindan yordam beradi. Mafkuraviy bo’shliqning asosida g’oyasizlik, g’oyaviy bo’shliq, g’oyaviy zaiflik, g’oyaviy savodsizlik, g’oyaviy porakandalik yotadi.

Talabalar o’z diqqat e’tiborlarini bu atamalarga qaratishi va ularning mazmun-mohiyatini tarixiy misollar bilan tushinib olishlari kerak bo’ladi. Biror shaxs yoki ijtimoiy guruhning ongi va qalbida muayyan maqsad sari etaklovchi fikrning yo’qligiga **g’oyasizlik** - deyiladi. G’oyasizlik odatda hali o’zligini anglab etmagan, o’z manfaat va imkoniyatlarini ifoda eta olmaydigan, maqsad-muddalari va hayotiy qadriyatlarini anglab etmagan kishilar va toifalarda uchraydi.

Hayotda yuksak g’oyasi, ezgu orzu-intilishlari bo’lmagan odam faqat tabiiy ehtiyojlar doirasi bilan chegaralanib qoladi. G’oyasizlik ma’naviyati tuban, imon-e’tiqodi sust, mafkurasi buzuq kimsalarni yuzaga keltiradi. O’z o’tmishi va nasl-nasabini bilmaslik, tarixiy xotirani unutish ham g’oyasizlikning bir ko’rinishidir. Bunday kimsalar o’z ota-onasiga qo’l ko’tarishi ham, o’z Vatanini sotishi ham mumkin. Masalan, Aleksandr Makedonskiy bosqini paytida Baqtriya satrapi Bess ahmoniyalar hukmdori Doro III ni xiyonat tufayli o’ldirdi. Vaholanki Bess ahmoniyalar hukmdori Doro III ning qarindoshi edi. Doro III ning Bes tomonidan o’ldirilishiga Aleksandr Makedonskiyning “mening asosiy dushmanim - Doro III, uning qarindoshlari va aholi avf etiladi”, - degan yolg’on va’dasi sabab bo’lgan edi. Shuning uchun Bess fitna yo’li bilan Doro III ni o’ldirib o’zini Artakserks IV nomi bilan hukmdor deb e’lon qildi. U “Doro III ni o’ldiradigan bo’lsam menga Aleksandar hujum qilmaydi”, - deb hisoblardi. Chunki u va uning tarafdorlari Vatan ozodligi g’oyasida o’z manfaatlarini ko’ra olishmayotgandi. Ular ongida g’oyasizlik hukm surar, bu esa qanday bo’lmasin tirik qolish maqsadida harakatga tushishiga olib kelgan edi. Ular shu yo’l bilan Aleksandrning shavfqatiga, hurmatiga sazovor bo’lmoqchi edi. Lekin asosiy maqsadi bosqinchilik bo’lgan Aleksandr Doro III ning o’ldirilishida Bessni “ayblab” Baqtriyaga yurish qildi. Aleksandrning bunday

¹ Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin ("Tafakkur" jurnali bosh muharririning savollariga javoblar) - Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. 8-tom. – T.: “O’zbekiston”, 1998. 84-85 b.

aldovlari ma'lum ma'noda ish berdi. Bessni hukmdorga xiyonatchi sifatida bilgan o'zining qo'l ostidagi Spitamen, Datafern va Katenlar tutib Aleksandr Makedonskiy yo'liga oyoq qo'lini bog'lab tashlab ketishdi. Bu harakatlar bosqinchilarni to'xtatmadi, balki ularga imkoniyat yaratib berdi.

Keyinchalik Spitamen Aleksandr Makedonskiyning haqiqiy maqsadi bosqinchilik ekanligini tushunib etdi va unga qarshi isyon ko'tardi. Lekin Spitamen ham fitna qurboni bo'ldi. Uning o'ldirilishi haqida tarixchilar ikki xil ma'lumot berishadi. Birinchisi, Spitamen sahroga chekinganda ko'chmanchi qabilalar oqsoqollari tomonidan o'ldirilishi haqida aytilsa, ikkinchisi, Rim tarixchisi Kvint Kurtsiy Ruf "Aleksandr Makedonskiyning ishlari haqida" asarida shunday yozadi: "... Bir kuni katta bazmdan so'ng uni mast holda uyquga ketganini bilib, xotini ko'ylagi ostiga yashirgan qilichi bilan Spitamenning boshini kesdi-da, voqeadan xabardor quliga berdi. Uning bilan birgalikda, qonga belangan ko'ylagini-da echmay, makedon qarorgohiga keldi... Iskandarga Spitamenning boshini topshirdi. Iskandarning ko'nglida turli tuyg'ular kurashardi. Undan yuz o'giran, uni sotgan, agar tirik qolsa yana qancha-qancha yomonliklar qilishi hayotini zaharlashi mumkin bo'lgan odam yo'q qilingandi. Ayolning xizmati juda kattaligini ko'rib turar di. Lekin makkorona xiyonatni qabul qilolmasdi... Maraz ishdan jirkanish, xizmatga mehr ko'rsatishdan ustun keldi: u ayolga qarorgohdan ketishni greklarga bunday axloqni yuqtirmaslikni buyurdi".¹ Vataniga, hukmdoriga, eriga xiyonatlarning vujudga kelishiga g'oyasizlik sabab bo'ldi, g'oyasizlik tufayli Aleksandrning aldovlariga, yolg'on vadalariga ishonishdi. Umuman olganda g'oyasizlik ijtimoiy xatarli xodisa bo'lib, shaxsda maqsadsizlikni, o'z kuch imkoniyatiga ishonchsizlikni, hayot qiyinchiliklari oldida ojizlikni, dushman tahdidi oldida qo'rquvni vujudga keltiradi. Natijada shu jamiyat va xalqqa yot bo'lgan begona kuchlar bunday odamlardan mafkuraviy ta'sir va ruhiy tazyiq orqali o'z g'arazli niyatlariga etish maqsadida foydalanadilar. Alohida shaxslar ongida g'oyasizlik vujudga kelishi ko'payib borishi jamiyatda g'oyaviy bo'shliq hosil bo'lishiga olib keladi.

G'oyaviy bo'shliq esa muayyan sharoitda jamiyat, undagi toifa va qatlamlarning ongida sodir bo'ladigan g'oyasizlik, mafkuraviy vakuum holati hisoblanadi. Muayyan aqidalar, fikr va g'oyalar zamon tanqidiga uchraganda yoki yangi paydo bo'lgan ijtimoiy-siyosiy kuchlar tomonidan inkor etilganda, davr talabiga javob beradigan g'oya va mafkura to'la shakllanib ulgurmagan hollarda jamiyatda g'oyaviy bo'shliq vujudga keladi.

Shu o'rinda talabalar O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda g'oyaviy bo'shliq muammosiga duch kelganligiga e'tiborni qaratishi kerak. Bu davrda g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishining bir manbai

¹ Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. – T.: "Yurist-mediya markazi", 2008. 110 b.

ba'zi toifalarning avvalgi komunistik mafkuraviy aqidalardan yuz o'girishi va yangi g'oyalarni qabul qilishi qiyin kechishi bo'lsa, ikkinchi manbai jamiyatda bu sohadagi tarbiyaning etarli emasligi, mafkuraviy jarayonlarning o'z holiga tashlab ko'yilganligidir.

Talabalar ushbu fikrning xulosasiga diqqatlarini qaratish kerak. Agar davlat yoki millat, ijtimoiy guruh yoxud qatlam o'z manfaatlarini, maqsad-muddalarini aniq ravshan ifoda etadigan o'z g'oyalarini kishilar, ayniqsa, yosh avlod ongiga muntazam suratda singdirib bormasa, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'ladi, ishonch-e'tiqod susayadi, mafkuraviy tahdidlar kuchayadi. G'oyasi yo'q e'tiqodi bo'sh odamlar esa, yot, begona ta'sirlarga tez beriluvchan bo'ladi, o'z yo'lini yo'qotib qo'yadi.

G'oyaviy bo'shliq, imonsizlik, manqurtlik jamiyat uchun jiddiy xavf soladi. Agar g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lsa, so'zsiz uning o'rnini shu xalqning tabiatiga begona turli xil mafkuraviy tazyiqlar egallab olishi va o'z ta'sirini o'tkazishi muqarrar. Shuning uchun o'z kelajagini o'ylagan har bir davlat va jamiyat g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, vayronkor g'oya va mafkuralarni inkor etish bilan birga, ilg'or fikrlar, ulug'vor maqsad va ezgu orzularni odamlar ongi va qalbiga singdirishga harakat qiladi.

Jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir etadigan yana bir holat bu g'oyaviy zaiflikdir. Shu o'rinda talabalarning diqqatini g'oyaviy zaiflik va uning oqibati g'oyaviy porakandalikning jamiyat taraqqiyotiga qanday salbiy ta'sir etishiga qaratish va ularni tarixiy voqeliklar bilan tushuntirib berish kerak bo'ladi. **G'oyaviy zaiflik** — jamiyat, davlat yoki xalqning mafkuraviy masalalarda uyushmagani, ma'naviyatga etarli e'tibor bermagani, tarbiya sohasida o'zibularchilikka yo'l qo'yilgani natijasida sodir bo'ladigan g'oyaviy ojizlik holati.

G'oyaviy zaiflik xalq ommasining tub manfaatlarini va ko'nglidagi orzu-intilishlarini ifoda etadigan, uni taraqqiyot sari, ulkan maqsadlar yo'lida jipslashtiradigan haqqoniy va jozibali g'oyaning, mafkuraning yo'qligi, ishlab chiqilmaganligi natijasida hosil bo'ladi.

G'oyaviy zaiflik ma'naviy bekarorlik va parokandalikka olib keladi. G'oyaviy parokandalik esa jamiyat, xalq, ijtimoiy qatlamlarning o'z maqsadlarini aniq-ravshan belgilab olmagan, orzu-intilishlari va manfaatlarini ifoda etadigan mafkura yaratmagani sababli ijtimoiy ongda va ma'naviy hayotda yuzaga keladigan g'oyaviy boshboshdoqlik, beqarorlik holati hisoblanadi.

G'oyaviy parokandalik odatda muayyan siyosiy tizim o'z hayotini tugatgan, jamiyat bir tuzumdan boshqasiga o'tayotgan, ijtimoiy siyosiy qutblashuv va ziddiyatlar kuchaygan, jamiyat turli tabaqalarga bo'linib, har bir ijtimoiy - siyosiy kuch o'zining tor manfaatlar doirasida o'ralashib qolgan vaziyatlarda ro'y beradi. Bu holat jamiyatni yanada tarqoq bo'lishiga,

bir-biriga dushman taraflarga ajratib yuborishiga olib keladi. Mamlakatda ichki ziddiyatlar kuchaygan, qatlam, toifa, milliy-etnik birliklar o'rtasidagi qarama-qarshilik zo'raygan hollarda ham ana shunday hol ro'y beradi. G'oyaviy porakandalik yuz bergan mamlakatlarni kuchli davlatlar bosib olishiga yoki iqtisodiy, siyosiy ta'sir doirasiga olishiga imkoniyat paydo bo'ladi. Oxir oqibat g'oyaviy porakandalik xalqlarning o'zga xalqlarga qaramlikka, mustamlakaga tushib qolishiga olib keladi.

Bunga misol tariqasida talaba quyidagilarni bilib olishi maqsadga muvofiq. Arablar bosqini arafasida Movarounnahrda g'oyaviy porakandalik hukm surardi. O'lka o'n beshta mayda davlatchalarga bo'linib ketgan, ular o'rtasida o'zaro nizo, kelishmovchiliklar avj olgan edi. Bundan Qutayba ibn Muslim ustalik bilan foydalandi. 709 yilda Qutayba Buxoro viloyatiga bostirib kiradi. Dushmanni daf etish maqsadida So'g'd podshosi Tarxun, Buxoro hukmdori Xunuxudot va Shopurkom hokimi Vardanxudotlar boshliq katta harbiy kuch hamda qirq minglik lashkar bilan yordamga kelgan turklar Torob va Romitan oralig'ida to'planadilar. Ittifoqchilar Qutayba qo'shinini qurshovga oladilar. Uning ahvoli nihoyatda tanglashadi. Undan xalos bo'lish uchun Qutayba o'ta makkorlik bilan hiyla ishlatadi. U So'g'd hukmdori Tarxunga yashirin holda odam yuborib: "Yordamga kelgan turklar sening mulkingga ega bo'lmoqchi, buning uchun arablarning Marvga qaytib ketishini kutib turibdilar. Arablar havo issiq paytdagina bu erda tura oladilar. Biz ketgach, turklar bog'i eramdek so'g'dni senga qoldirib Turkistonga ketmaydilar. Mulk qo'lingdan ketipdi-yu, sening xabaring yo'q", degan ig'voni etkazdi. Tarxun xavfga tushib, Qutayba bilan kelishadi va unga mol va ikki ming dirham boj to'lab jang maydonidan o'z qo'shinini olib chiqib ketadi. Arablar bu jangda g'alaba qiladi. Talabalar diqqatini boshqa bir misolga ham qaratishi mumkin. Chunonchi, 711 yilda Xorazm hukmdori Chag'on ukasi Xurzod qo'zg'olonini bostirish uchun Qutaybadan yordam so'raydi. Xurzod qo'zg'oloni dushman qo'li bilan bostirilsa ham hukmdor Chag'on hech narsa yutmaydi, balki Qutaybaga tobe hukmdorga aylanib har yili boj to'lashga va qo'shinlarini Movarounnahrning boshqa viloyatlarini bosib olish uchun berishga majbur bo'ladi. Umuman Qutayba Movarounnahrni zabt etishda bosib olingan viloyat harbiy kuchlaridan foydalanadi. Shunday qilib Qutayba mahalliy hukumdorlardagi g'oyaviy zaiflik, jamiyatdagi g'oyaviy parokandalikdan ustalik bilan foydalanadi, ular orasida nizo urug'ini sohib g'alaba qilishga muvaffaq bo'ladi. G'oyaviy parokandalik tufayli davlatlar va xalqlar qaramlikka, iktisodiy va mafkuraviy iskanjaga tushib qoladilar, tanazzul va tushkunlikka yo'liqadilar. Bu jamiyatdagi barcha qatlam va guruhlarini umumiy maqsadlar va tub manfaatlar yo'lida birlashtiradigan yagona, umumxalq mafkurasi bo'lmaganligining oqibati edi.

Shu o'rinda talabalar yana bir tarixiy voqelik tafsilotiga diqqatlarini qaratishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. XIII asrning boshlarida Xorazmshohlar davlatining tarkibiga Xorazm, Movarounnahr, Afg'oniston erlari va Eronning kattagina qismi kirar va sirtdan qaraganda u ulkan saltanat bo'lib ko'rinar edi. Lekin g'oyaviy porakandalik, mahalliy hukumdorlar va lashkarboshilarning ko'pchiligidagi g'oyaviy zaiflik holati Chingizxon bosqiniga qarshi mudofaa qobiliyatini susaytirib yubordi. Xorazmshohlar saltanatida yuqori mansablarni oqsuyak tabaqa vakillari egallagan bo'lib, mansablar o'rta asr odatlariga ko'ra otadan bolaga meros o'tardi. Bu esa qobiliyatli, eng munosib shaxslarni davlat mansablariga tanlab qo'yish imkoniyatidan mahrum qilardi. Bunday mansabdorlar davlat qiyin ahvolga tushib qolgan paytlarda o'z manfaatini ko'zlab vazifasini tashlab ketar, podshoga itoatsizlik qilib xoinlik yo'lini tutardi. Hatto Muhammad xorazmshohning o'z onasi o'zi mansub bo'lgan qipchoq urug'idan chiqqan amaldorlarga tayanib bu urug' manfaatlari yo'lida turli saroy fitnalarini tashkil qilar. O'z navbatida bu siyosiy jihatdan saltanatni zaiflashtirar edi. Bunday ahvol Xorazmshohlar davlatining askar soni jihatidan ustunligi, oziq-ovqat, em-xashak zahiralar mavjudligi, mustahkam qal'a istehkomlarning mavjudligi, dushman bosqinidan o'z uy joylari va mol mulkini himoya qilishga jonini ham berishga tayyor turgan aholi kabi imkoniyatlarni yo'qqa chiqardi. Afsuski, podshoh bilan sarkardalar o'rtasidagi mavjud ixtiloflar avval boshdanoq bunday imkoniyatlardan foydalanishga imkon bermadi. Harbiy kengashda dushmanga yakdillik bilan zarba berish rejasi belgilab olinish o'rniga fikrlar bo'linib ketdi. Sarkardalardan biri Shahobiddin Xivaqiy barcha qo'shinni bir joyga Sirdaryo bo'yiga to'plash va mo'g'ullarga zarba berish rejasini taklif qiladi. Lekin qo'shin bir joyga to'planadigan bo'lsa, hokimiyatni qipchoq lashkarboshilari tortib oladi deb qo'rqqan Muhammad xorazmshoh bunga rozilik bermaydi. Har bir shahar o'zini – o'zi himoya qilsin degan buyruq beriladi. Bu vatan himoyachilari kuchini bo'lib yuborilishiga olib keladi. Ba'zi lashkarboshilar g'oyaviy zaiflik tufayli vatanga xiyonat yo'lini tutdilar. Masalan, Xorazmshohlar davlatida O'tror mustahkam chegara qal'asi hisoblanar edi. Unda 50 ming muntazam qo'shin, mahalliy kuchlar bilan qo'shib hisoblaganda 80 ming atrofida qo'shin to'plangan edi. Shahar hokimiyatining bir necha vakillari va Qoracha Hojib 10 ming qo'shini bilan Chingiziylarga taslim bo'ladi. Shunday bo'lsada Chingiziylar xoinlarni kechirmadi, o'z hukumdoriga sotqinlik qilgan kishilar qiyin sharoitda bizga ham xiyonat qiladi deb hisoblab, Qoracha Hojib va uning tarafdorlarini qirib tashladi. Yoki Samarqand noibi, shahar himoyasi uchun ma'sul Tog'ayxon 20 ta sarkardasi va 30 ming qo'shini bilan Chingizxon xizmatiga o'tish maqsadida taslim bo'ldi. Bir oz muddat o'tgach Tog'ayxon va uning tarafdorlari Chingizxon tomonidan qirib tashlandi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki ozodlik, yurt mustaqilligi g'oyalari Muhammad Xorazmshoh davlatida ko'pgina amaldorlar va sarkardalarning e'tiqodiga aylanmagan edi. Ular bu ezgu g'oyalar yo'lida birlashish, hunarmand, savdogar, dehqonlarni o'z ortlaridan ergashtira olish vazifasini uddalay olishmadi. Garchi mudofaachilar o'rtasida birlik, birdamlik zaif bo'lsada oddiy aholi mo'g'ullar bosqiniga qarshi kurashib g'alaba qilishiga ishonar edi. Shuning uchun ham har bir shahar aholisi harbiy jihatdan har tomonlama ustun bo'lgan Chingizxon qo'shiniga qarshi mardanovor kurashdi. Ular orasidan Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Mahmud Tarobiy kabi qahramonlar etishib chiqdi.

Xuddi shunday g'oyaviy porakandalik, g'oyaviy zaiflik chor Rossiyasi bosqini arafasida Markaziy Osiyo davlatlari hukmdorlarida ham mavjud bo'lganligi, ayrim shaxslar ongida g'oyaviy bo'shliq holati chor Rossiyasining bu davlatlarni bosib olishiga sharoit yaratib berdi. Ularning birlashib umumiy dushmanga qarshi birgalikda kurashish imkoniyatini yo'qqa chiqardi. Chor Rossiyasi Markaziy osiyoni bosib olgandan keyin ma'naviy-g'oyaviy qaramlikka tushirishga intila boshladi.

Shu o'rinda talabalar e'tiborlarini quyidagilarga ham qaratishi lozim. Insoniyat tarixi shundan guvoh beradiki, bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar avvalo, uni o'zligidan, tarixidan, madaniyati va ma'naviyatidan judo qilishga intiladi. Bosib olingan mamlakat xalqlari madaniy-ma'naviy merosini yo'q qilish, taraqqiyotini bo'g'ib qo'yish istilochi, bosqinchi mamlakatlar tomonidan mustamlakachilik tartiblarini saqlab turish va mustahkamlashning azaliy, tarix sinovidan o'tgan an'anaviy yo'llaridan biri bo'lib hisoblanadi. Istilochi bosqinchi mamlakat tobe va qaram mamlakat xalqlarini bora-bora o'ziga singdirib yuborishni, buning uchun o'z mafkurasi va g'oyalarini ularga majburan, zo'rovonlik yo'li bilan joriy etish, madaniyati va ma'naviyatiga shikast etkazish, milliy tili, milliy urf-odatlar, qadriyatlar rivojiga yo'l bermaslikni o'z siyosatining asosiy maqsadi deb biladi. Chunki xalqning madaniyati va ma'naviyatini barbod etish, milliy til, urf-odatlar kamolotiga yo'l bermaslik qaram va tobe bo'lgan xalqni mustamlaka jilovida ushlab turishning eng zarur va nozik yo'llaridan biri ekanligini bosqinchilar juda yaxshi bilgan. Avval Chor bosqinchilari, so'ng esa sobiq sho'ro bu boradagi amaliy ishni Turkiston xalqlarini bir necha ming yillik tarixi, madaniyati, urf-odatlaridan maxrum qilish, ruxan, ma'nan mayib-majrux qilishdan boshladilar. Ularning siyosati Turkiston xalqlari milliy tuyg'usini poymol etishga, milliy qadriyatlarni toptashga, butkul yo'qotib yuborishga qaratilgan edi. Buni ularning o'zlari ham yashirmas edilar. Bu haqda M.A. Muropiev 1882 yil 30 avgust kuni Toshkent o'qituvchilar seminariyasidagi yig'ilishida "...musulmonlarimiz maorifining asosida ularni ruslashtirish... islomni buzish... umuman diniy jihatlarni buzish... yotmog'i lozim degan bo'lsa; Turkiston general gubernatori

I.A.Kuropatkin esa kundaliklarida; “Biz 50 yil tub-joy aholini taraqqiyotdan chetda... tutdik”, - deb qayd etgan edi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Inson uchun tarixdan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir».¹ «O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q».²

G'oyaviy qaramlik, deb — millat, jamiyatning o'z manfaatlarini va maqsadlariga mos kelmaydigan, unga zid bo'lgan g'oyaviy oqimlarga bog'liqligi, yot va begona g'oyalarga bo'ysunishini xarakterlovchi holatga aytiladi. G'oyaviy qaramlik g'oyasizlik, g'oyaviy bo'shliq yoxud parokandalik oqibatida kelib chiqadi. Mustamlakachilar bunday holatlarni keltirib chiqarishga intiladilar. Buning uchun ular mustamlaka xalqlarini g'oyaviy savodsiz qilishga, ilm va ma'rifaatdan uzoqda tutishga, “Bo'lib tashlab hukumronlik qil” – g'oyasiga tayanib turli millatlar, urug' qabilalarni, turli din vakillarini o'zaro urushtirish uchun nizo urug'larini sochishga harakat qiladi.

G'oyaviy savodsizlik — mafkuraviy jihatdan etarli bilim, malaka, ko'nikmaga ega bo'lmagan insonlarga xos bo'lgan xususiyat hisoblanadi. G'oyaviy savodsizlikning asosini mustaqil fikrga, sobit e'tiqodga, mustahkam iroda va dunyoqarashga ega bo'lmaslik tashkil etadi. Bunday kishi jamiyatda o'z o'rniga, o'zining aniq hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lmaydi. Natijada u turli zararli g'oyalar, yot, begona mafkuralar ta'siriga juda oson tushib qoladi. Shu o'rinda talabalar sobiq sovet davrida mafkuraviy targ'ibotdan ko'zlangan maqsadlarga ham diqqatlarini qaratishi kerak bo'ladi. Lenin mafkurani odamlar tafakkurini o'zgartirishda qanchalik kuchli omil, kuch ekanligini hisobga olib, “partiya siyosiy faoliyatda ideologiyaga tayangan va tayanadi”, deb uqtirdi. Sobiq sovet mafkurasi o'zbek xalqining “eski odatlarini yo'qotish” shiori ostida milliy g'ururni, mustaqillik g'oyasi, uning kurashchilarini mafkuraviy zaiflashtirish maqsadida maktabdan tashqari minglab ma'rifiy-siyosiy oqartuv bo'limlarini ochdi. O'zbek xalqining tafakkurini sovetlashtirishga bunday yondashuv ularning manfur maqsadlariga tezroq etkazdi: sovet dekretlari targ'iboti, partiya dasturi targ'iboti, Konstitutsiya targ'ibotiga bag'ishlangan mitinglar, miting-kontsertlar, tashviqiy sudlar, tashviqiy mavsumlar, qishloqlarda yurib sho'ro tuzumi mohiyatini tushuntirishlar, teatr, kontsert, ko'rgazma, ma'ruzalar, kino, qiroatxonalarni ishga soldi. Agitpoezd, agitparoxod, klub, “qizil choyxonalar”, siyosiy suhbat, “siyosiy kun”, disput, kechalar, jangovar varaqalar, “Chaqmoq”, kinolektoriy, og'zaki jurnallar kabi targ'ibot-tashviqotning yuzlab usullaridan foydalanib, makkor sho'ro xalqimizning ongiga sovetning soxta g'oyalarini singdirdi.

Tarixda g'oyaviy qaramlik asorati, mustamlakaga aylantirilgan xalqlarni o'z madaniyati, tili va dinidan uzoqlashishiga, ularni unutishga olib

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: «Sharq», 1998. 10 b.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. - T.: «Ma'naviyat», 2008. 4 b.

kelgan. Vaqt o'tishi bilan shu xalqning ilg'or vakillari, fidoyi farzandlari, hatto o'z jonini qurbon qilib bo'lsa-da, ozodlik va mustaqillik uchun kurashgan, qaramlikning har qanday ko'rinishiga qarshi ommani qo'zgatgan. Masalan, XIX asr ikkinchi yarmida Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar kabi marifatparvar shoirlar va ziyoliylar xalqni zamona ilm-fanini o'zlashtirishga da'vat etgan bo'lsa, jadidlar yangi usul maktablarini ochish, teatr tashkil kilish, gazeta, jurnallar nashr ettirish, adabiyot, Turkiston xalqi tarixini yozish orqali g'oyaviy qaramlikka qarshi kurashganligini ko'rish mumkin.

Rejada belgilangan ikkinchi masala bayoniga xulosa yasashda milliy istiqlol g'oyasining ahamiyati haqida quyidagilarni aytib o'tish maqsadga muvofiq. G'oyasizlik, g'oyaviy bo'shliq, g'oyaviy zaiflik, g'oyaviy savodsizlik ma'naviy-mavkuraviy tahdidlarga yo'l ochib berib, oxir oqibat, g'oyaviy qaramlikka, ma'naviy tobelikka olib kelar ekan bunday holatlarga qarshi kurashish kerak bo'ladi. Shuning uchun O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan keyin Milliy g'oyani shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Milliy istiqlol mafkurasi g'oyasizlikning har qanday ko'rinishini inkor etadi, g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaydi, ma'naviy hayotni butun xalq va har bir fuqaroning manfaatiga mos keladigan yuksak va jozibali g'oyalar bilan boyitadi. Bu, o'z navbatida, fuqarolarda ertangi kunga ishonch va kelajakka umid hissini mustahkamlaydi.

Hozirgi globallashuv sharoitida g'oyaviy qaramlikka solishning turli usullari qo'llanilmoqda, xilma-xil «ovoz»-lar, ommaviy axborot vositalari, informatsion texnologiyalar yordamida mafkuraviy tajovuzlar uyushtirilmoqda. So'nggi yillarda ayrim g'oyaviy savodsiz kishilarning turli xil mafkuraviy tazyiqlar tufayli yot, begona g'oyalar ta'siriga tushib qolganligi kuzatildi. Jumladan, din niqobi ostida omma ongini zaharlashga, jamiyatga moddiy va ma'naviy zarar etkazishga harakat qilinmoqda. Bunday tahdid va ta'sirlarga faqat kuchli g'oya, o'zlikni anglash, sog'lom mafkuraga tayangan holdagina qarshi tura olinadi.

Mafkuraviy poligonlar yadro poligonlaridan xavfliroq bo'lib borayotgan bugungi vaziyatda turli mafkuraviy xavf, tahdidlardan ogoh bo'lishda, milliy istiqlol g'oyalarini yoshlar ongi va qalbiga singdirish, g'oyaviy savodxonlikni oshirish nihoyatda muhim. Milliy g'oya fuqarolarni tafakkur qulligidan qutqaradi, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va farovon turmushni ta'minlashga yordam beradi, begona, vayronkor g'oyalarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet hosil qilishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Islom Karimov ko'p marta ta'kidlaganidek, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish davr talabi bo'lib qoldi. Inson uzluksiz ravishda ma'naviy-ruhiy, ma'rifiy ozuqa olib turmasa, uning ma'naviy qashshoqlanishi tabiiy. Demak, jamiyatning taraqqiy etishi uchun

xalqning g'oyaviy jihatdan savodxonligini oshirish, bu borada muttasil ma'naviy-mafkuraviy tarbiya ishlarini olib borish zarur.

III. JAMIYAT VA SVILIZATSIYALAR RIVOJIGA ULKAN TA'SIR KO'RSATGAN BUNYODKOR G'OYALAR VA MAFKURALAR

Talabalar ushbu mavzuni o'rganar ekan, insoniyat tarixida ezgulik va bunyodkorlik g'oyalari bilan yovuzlik va buzg'unchilik g'oyalar o'rtasida hamisha kurash bo'lganligi tarixdan ma'lum, ekanligiga e'tiborlarini qaratishlari lozim. Bunda esa talabalar bunyodkor va vayronkor g'oyalar asos bo'lgan mafkuralarni ham bilib olishlari muhimdir.

Bunyodkor g'oya va mafkuralarga quyidagilar yaqqol misol bo'ladi. Qadimda Markaziy Osiyo aholisi Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi "Avesto"dagi bunyodkor g'oyalarga e'tiqod qilgan. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra hayot Ezgulik va Yovuzlik o'rtasidagi doimiy kurashdan iborat. Unda ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ish birligi jamiyat hayotining ustuvor g'oyasi sifatida talqin etilgan. Insonning asosiy burchi eng avvalo adolatli turmush tarzi hisoblangan. Yovuzlik bilan kurashda insonlar ezgulikka yordam berish lozim: yolg'on so'zlamaslik, aldamaslik, vadaga vafo qilish, faqat ezgu ishlarni amalga oshirish kerak. Avestodagi barcha yovuzliklarning kushandasi mehnat deb talqin etilishi odamlarni bunyodkorlikka da'vat etadi. Avestoda borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uyg'unligi masalasi - olov, tuproq, suv va havoni muqaddaslashtirish orqali odamning ruhiy olamiga chambarchas bog'liq holda ko'rsatiladi. Bugungi kunda ba'zi Evropalik mutaxassislar tabiatni asrash borasida zardushtiylarning qadriyatlarini yoshlar ongiga singdirish kerak deb hisoblamoqda. Bugungi kunda Milliy istiqlol g'oyasi targ'ibotida ham bunday bunyodkor g'oyalardan foydalanilmoqda.

Tarixda Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish g'oyasi buyuk bunyodkorlik kuchiga ega bo'lgan. Bu g'oyani amalga oshirish jarayonida o'zaro feodal urushlarga chek qo'yildi, Movarounnahrda mo'g'ullar hukmronligi va zulmiga barham berildi, tinchlik va adolatli qonunlarning o'rnatilishi iqtisodiy hayotning, jumladan hunarmandchilik, dehqonchilik, savdo sotiq, chorvachilikning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Amir Temurning «Temur tuzuklari»da davlat idorasi va ahli fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh g'oya sifatida ilgari surildi.

Bu g'oyalar Temuriylar davlati g'oyaviy tamoyillarining ustuvor yo'nalishi edi. Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari va amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi bunyodkorlik va yaratuvchilik edi. Jumladan, u «Temur tuzuklari»da: «Agar fuqarodan birining uy imorati buzilib, tuzatishga qurbi etmasa kerakli uskunalarni

etkazib berib, unga yordam berilsin», deb ko'rsatma beradi. Shu o'rinda, Yurtboshimizning Amir Temur o'z davlatini aql zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan desak adolatdan bo'ladi, degan fikrlari nihoyatda o'rindir. Zero, Sohibqiron o'z bunyodkorlik maqsadiga erishish uchun sobitqadamlik bilan harakat qilgan. Jumladan, bu haqda «Temur tuzuklari»da yozganidek, «Biror ishni bajarishni o'ylasam butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib, bitirmagunimcha undan qo'limni tortmadim»¹, - degan so'zlari bugun ham ibratlidir.

Movarounnahr, Xuroson va boshqa joylarda bunyod etgan inshootlari, uning o'zi va Temuriylar sulolasi davridagi madaniyat, fan va adabiyot sohasidagi yutuqlar bunyodkorlik g'oyalari natijalariga misol bo'la oladi.

Amir temur va Boburdek buyuk bobokolonlarimizning shahar va qishloqlarni obodonlashtirish ishlariga alohida ahamiyat berganliklarining boisi shundaki, insonlar qanchalik go'zal va obod, gurkirab rivojlangan shahar va qishloqlarda yashasalar, mehnat qilsalar, shunchalik kayfiyati ko'tarinki, ishlari unumli bo'lgan.

Barcha davrlarda va turli xalqlar tarixida milliy g'oya va mafkura o'zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning salohiyati va imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarishda beqiyos omil bo'ladi. Shu o'rinda talabalar Milliy istiqlol g'oyasi ham xuddi shunday bunyodkor mazmunga ega ekanligiga e'tiborlarini qaratsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

IV. VAYRONKOR G'OYA VA MAFKURALARNING JAMIYAT HAYOTIGA SALBIY TA'SIRI

Yovuzlik g'oyalari tarixda hamisha salbiy va yovuz kuchlar faoliyati va hukmronligini ifodalab kelgan. Yovuzlik g'oyalarga xristianlarning musulmonlarga qarshi salib yurishlariga turtki bo'lgan g'oyalar, irqchilik, "kommunizm", fashizm, terrorizm, mustamlakachilikni targ'ib qiluvchi g'oyalar misol bo'ladi.

Jumladan, **bolshevizm** bilan bir qatorda, XX asrning boshida mustabid g'oya va mafkuraning boshqa shakli – **fashizm** paydo bo'ldi.

Fashizm (ital Fasismo bog'lam, birlashma) - g'arb mamlakatlarida XX asr boshlaridagi og'ir iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy buxronlar davrida vujudga kelgan o'ta tajovuzkor va vayronkor g'oyalar asosida shakllangan insoniyatga qarshi nazariya va amaliyot. U jamiyatda o'ta reaksion va tajovuzkor doiralarning dunyoqarashi va manfaatini ifoda etgan holda, ochiqdan-ochiq terroristik diktaturaga, zo'ravonlik g'oyasiga tayanadi. Fashizmning - muhim xususiyati ochiqdan-ochiq shovinizm va irqchilik

¹ Amir Temur. Temur tuzuklari. –T.: G'G' G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. 70 b.

bo'lib, uning mohiyati jamiyatning barcha taraqqiyparvar qatlamlari, ilg'or fikrli a'zolariga qarshi kuch ishlatishning eng og'ir va zararli shakllarini qo'llash jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Fashizm o'z kirdikorlarini yashirish va xaspo'shlash uchun siyosiy tilyog'lamalik, yolg'on va bo'htonlardan ustalik bilan foydalanadi.

Fashizmning tashqi siyosati bosqinchilikdan va xalqaro terrorchilikdan iborat bo'lib, bunday siyosiy rejimlar XX asrning 30-yillarida Italiyada, Germaniyada, Portugaliyada, Ispaniyada va Sharqiy Evropaning boshqa bir qancha mamlakatlarida o'rnatilgan edi. Fashistlar Germaniyasi Gitler boshchiligida va militaristik Yaponiya bilan ittifoq tuzib 1939-1945 yillardagi Ikkinchi jahon urushini boshlagan. Bu urush insoniyatga mislsiz kulfat va falokatlar keltirdi, 50 milliondan ortiq odam halok bo'ldi, yuzlab shahar va qishloqlar vayron qilindi.

O'tgan asrning 70-yillariga kelib Portugaliya, Gretsiya, Ispaniyada ham fashistik tartiblar barbod bo'ldi. Ammo, bugungi kunda ham ba'zi mamlakatlarda (Avstriya, Germaniya va b.) fashistik unsurlarning muayyan darajada faollashuvi kuzatilmoqda. Yangi fashizm g'oyasi bugungi kunda insoniyat uchun zararli ekanligini har bir inson anglamog'i lozim.

Bolshevizm mafkurasi bo'lgan kommunistik ta'limot xalqlarning milliy-etnik o'ziga xosliklarini yo'qotish, "proletar baynalmilalligi" shiori bilan maydonga chiqqan bo'lsa, fashizm bir hukmron millatning "irqiy-etnik sofliqi"ni mutlaqlashtirishni targ'ib-tashviq etdi. U irqchilikning homiysi hisoblanadi.

"Rasizm" so'zi "rasa" (irq) atamasidan kelib chiqqan. Bu atama XVII asrdan boshlab Evropada "insoniyat nasli"ni turli irqiy guruhlar, jumladan, "oq" va "sariq" irqqa ajratish uchun qo'llana boshladi. Irqchilik - odamlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo'ravonlik va urushlarni kishilarning turli irqlarga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g'ayrimilliy ta'limot

Irqchilik ta'limoti - "oq tanli"larning afzalligi, ularning azaldan "oliy irq" etib tanlangani, boshqa irqlarning esa "oq"larga qaraganda nomukammal yaratilganligi va hamisha taraqqiyotning quyi pog'onalarida turishini "asoslab" berishga harakat qiladi. Uning asosiy g'oyasi o'zining "ilohiy" tabiatiga ko'ra "oq" irqlarni "quyi" irqlar ustidan hukmron qilishga da'vat etishga qaratilgan edi. Irqchilik milliy mansubligi va terisining rangiga ko'ra turuvchi kishilarga tazyiq o'tkazish, ularni haqoratlash, urish va o'ldirish kabi harakat-hodisalarda yaqqol namoyon bo'ldi. U buyuk davlatchilik, ashaddiy shovinizm, "tanlangan" xalqlarning milliy afzalligi g'oyalari bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Irqchilik ta'limoti boshqa xalqlarga nisbatan bosqinchilik, ta'lonchilik amaliyoti bilan yaqindan bog'liqdir

Yana bir yovuz g'oya - terrorizm bugungi kunda ham insoniyatga katta tahdid solmoqda.

Terrorizm (lot. Terror – qo'rquv, dahshat) - ma'lum yovuz maqsad yo'lida, kuch ishlatib, odamlarni jismoniy yo'q qilishdan iborat bo'lgan g'oyaga asoslangan zo'ravonlik usuli. Qo'rqitish va dahshatga solish orqali o'z hukmini o'tkazishga urinish terrorchilikka xosdir. U iqtisodiy, siyosiy, diniy, g'oyaviy, irqiy, milliy, guruhiy, individual shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Jamiyatga doimiy qo'rquv, fitna, g'alamislik muhitini vujudga keltirish, zo'ravonlik yo'li bilan jamiyat barqarorligini buzish, gunohsiz kishilar, jumladan, bolalarning halok bo'lishiga olib keladigan siyosiy maqsaddagi o'ldirish va portlatishlar bu mudhish g'oyaning asl mohiyatini tashkil etadi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi - bir davlatning boshqa davlat yoki davlatlar ustidan siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va harbiy hukmronligini o'rnatishga qaratilgan nazariya va amaliyot. Buyuk davlatchilik shovinizmi g'ayriinsoniy xususiyatga ega bo'lib, boshqa xalqlarni qaram qilish, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotda ularni kamsitishning o'ziga xos shaklidir. Shovinizmning tarixan halokatli ekanligiga sabab shuki, haddan tashqari kuchayib ketgan va ayniqsa, o'z milliy mumtozligiga ishonishga asoslangan buyuk davlatchilik zo'ravonlik asosiga qurilganligidadir. Bu esa, o'z navbatida, buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilikni ifoda etuvchi davlatlarning o'zida ko'plab qurbonlar va yo'qotishlarga olib keladi.

Diniy aqidaparastlik esa - siyosiy maqsadlar yo'lida mavjud ijtimoiy muammolarni ilk, ya'ni mazkur din paydo bo'lgan paytdagi arkonlar asosida hal etmoq niyatidagi harakat va qarashlardan iborat.

Aqidaparastlar diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan, o'sha zamondagi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga mos bo'lgan barcha yo'l-yo'riqlarning qat'iy hamda og'ishmay bajarilishini talab qiladilar va shu tariqa diniy oqimlarni ifodalashda qo'llanadigan islohot shaklini shart qilib qo'yadilar. Islom niqobidagi aqidaparastlarning asosiy g'oyasi - "sof islom" qat'iyatlariga (printsipalariga) qaytish, maqsadi esa islomiy davlat joriy etishdan iborat.

Diniy ekstremizm - ma'lum siyosiy maqsadlar yo'lida va din niqobi ostida mutaassiblar yoki ularning irodasiga ko'ra ish ko'ruvchi guruhlar tomonidan olib boriladigan o'ta ashaddiy harakatlar va qarashlar majmuini anglatadi. Boshqacharoq aytganda, diniy ekstremizm - muayyan diniy yo'nalish va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib unsurlar siyosiy faoliyatining mafkurasi. Bu fikrning isboti sifatida "Musulmon birodarlari" va undan ajralib chiqqan ko'plab diniy ekstremistik ruhidagi guruh va tashkilotlar tayanadigan asosiy g'oyalarni eslatib o'tish mumkin.

Bugungi globallashuv davrida vayronkor mafkuralarning tarqalishida muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barkarorligiga qarshi

qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tuzumni zaiflashtirish va buzishga yo'naltirilgan **mafkuraviy tajovuzlar** ham katta rol o'ynayotganligini, natijada fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid taboro kuchayib borayotganligini talabalar bilib olishi zarur.

Mafkuraviy tajovuz yovuz kuchlar va har xil markazlar tomonidan biron-bir mamlakatga nisbatan ichkaridan yoki tashqaridan turib bevosita amalga oshiriladigan g'oyaviy buzg'unchilikning bir shaklidir. Ular o'z jirkanch maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy xissiyotlari, hayotda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklardan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar.

Bugungi kunda mafkuraviy tajovuz deganda, aholining ma'lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, buzg'unchi g'oyalar, diniy ekstremizm, axloqsizlik g'oyalarini singdirish kabi g'arazli maqsadlar tushuniladi. Bunday tajovuz fuqarolarni qonuniy hokimiyat organlari faoliyatiga xalaqit qilish, zo'ravonlik xatti-harakatlarini amalga oshirishga undash yoki ularni Konstitutsiyada ko'zda tutilmagan boshqa tuzilmalar bilan almashtirishga chaqirishda namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda esa o'zga hududlarni zabt etish uchun ularning aholisini jisman maxv etish shart emas. Zero, turli mafkuraviy ta'sirlar oqibatida ongi va shuuri zabt etilgan, qarash va kayfiyatlari «ma'qul» yo'nalishga o'zgartirilgan mahalliy aholi ko'magida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin. Bu esa shu joy aholisining ongi va qalbi yot va begona g'oyalar sinab ko'riladigan maydonga aylanganini bildiradi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek hozirgi davr g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham xavfliroq bo'lib borayotgan davrdir. Xususan, mamlakatimiz ichida o'zlarining zararli g'oyalarini tarqatishga harakat qilgan, yoshlarni chalg'itish, ongini zaharlash, ular yordamida mamlakatni o'z taraqqiyot yo'lidan chetlatib yuborishni ko'zda tutgan diniy ekstremistik oqimlar - vahhobiylar, «xizbut tahrir»chilarning harakatlarini aynan shunday baholash mumkin.

Bugungi kunda mafkura poligonlarida buyuk davlatchilik shovinizmi mafkurasiga asoslangan muayyan guruhlar va davlatlar o'zlarining g'arazli manfaatlarini ifoda etayotgan turli tajovuzkor g'oyalarni sinovdan o'tkazmoqdalar. Ularning ortida kishilarni, eng avvalo, ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe qilish, pirovard-natijada esa butkul karam kilib olish maqsadi yotadi. Bu katta-katta hududlarni, ayniqsa, boy tabiiy resurslarga ega bo'lgan mintaqalarni egallab olishning eng qulay va kam xarj usulidir.

Shu o'rinda talabalar mafkuraviy tahdid va tajovuzlarga qarshi kurash mohiyatini ham tushinib olishlari zarur. Mafkuraviy tahdidlar va tajovuzlar

kuchaygan davrda ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g'oyaviy-tarbiyaviy, ma'naviy - mafkuraviy ishlar, ya'ni mafkuraviy profilaktika ishlarini olib borish zarur bo'ladi. **Mafkuraviy profilaktika** g'oyaviy bo'shliqni tugatish, mafkuraviy parokandalikning oldini olish yoki biror-bir hudud, unda yashovchi kishilar, ijtimoiy qatlam, guruhlarini yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda g'oyaviy ta'sirning xilma-xil usul va yo'llaridan foydalaniladi, turli vositalar qo'llaniladi.

Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda ham mafkuraviy profilaktikaning o'рни katta. Zero, u mohiyatan yot g'oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlarga tayanadi. Mafkuraviy immunitet jamiyat xavfsizligining ma'naviy asosi hisoblanadi.

XULOSA

Milliy istiqlol g'oyasi fanini o'qitishning maqsadidan kelib chiqib xulosa qismida talabalar milliy g'oya – milliy davlatning tayanchi va suyanchi, jamiyatdagi barcha ijtimoiy kuchlarni birlashtiradigan, ma'lum maqsadlarni amalga oshirishga uyushtiradigan kuch ekanligiga e'tibor berishlari kerak bo'ladi.

Milliy g'oya dastavval odamlarni, jamiyat a'zolarini birlashtirish mohiyatiga ega bo'lgan maqsadlarni ifodalaydi. Shu boisdan Yurtboshimiz «biz avvalambor qanday jamiyat qurmoqdamiz, o'z kelajagimizni kanday tasavvur etamiz, degan savollarga o'z javoblarimizni aniqlashtirib olishimiz, shundan keyin odamlarimizni ana shunday olijanob maqsadlar atrofida birlashtirishimiz zarur»¹, - deb alohida qayd etgan edilar.

Bu yorug' olamda insonlarning, millatlarning maqsadi, orzu-umidlari erkin, farovon yashash ekan milliy g'oya bu maksadga erishishda odamlarni birlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin uning oldida ikkita hayotiy vazifa turar edi. Birinchisi, mustaqillikni mustahkamlash, ikkinchisi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurish. Bu ikki vazifa bir biri bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Chunki demokratiya odamlarni turli siyosiy karashlar, mazhablar, qiziqishlar, intilishlar, kayfiyatlar, etnik o'ziga xosliklar negizida birlashib harakat qilishlarini taqozo etsa, milliy g'oya fuqarolarni yagona maqsad mustaqillikni mustahkamlash, forovonlikni oshirish, adolatli demokratik tamoillarni hayot tarziga aylantirish yo'lida jamlanib harakatlanishiga ma'naviy zamin

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. –T.: “O'zbekiston”, 2000. 465- bet.

hozirlaydi. Demak, milliy g'oya O'zbekiston fuqarolarini ma'naviy jihatdan birlashtirishning oliy darajasi hisoblanadi.

Milliy g'oya o'tish davrining bosh harakatlantiruvchi kuchi sifatida turli mamlakatlarda sinovlardan o'tib, o'zining hayotchanligini isbotlagan. Masalan, ikkinchi jahon urushi yillarida L. Peten boshchiligidagi sotqin hukumat fashistlar Germaniyasi tazyiqi bilan Fransiya taslim bo'lganligini e'lon qilsada, vatanparvar general Sharl de Gollning dushmanga bo'yin egmaslik da'vati bilan tuzilgan umumfransuz «Qarshilik ko'rsatish harakati» fransuz xalqini birlashtirdi. Bu Fransiyaning ikkinchi jahon urushi nihoyasida g'oliblar orasida turish sharafiga erishtirdi. Ingliz mustamlakachilari asoratidan xalos bo'lish – ozodlik g'oyasi Hindiston Milliy kongressining tuzilishiga olib keldi. Bu harakatga boshchilik qilgan Mahatma Gandi hind xalqini “Yovuzlikka qarshi kuch ishlatmaslik” g'oyasi asosida “tinch isyon” ko'tarish, ya'ni, g'animlarga qarshi biror bir o'q uzmasdan, qon to'kishga yo'l qo'ymasdan yalpi norozilik kayfiyatini shakllantirish, istilochilar bilan hamkorlik qilishdan tamomila voz kechish, ularga mutlaqo xizmat qilmaslik, yakka qo'yish orqali “fuqarolar qarshiligi”ni vujudga keltirgan edi. Bu esa Hindistonning ozodlikka chiqishiga yordam bergan edi.

Xuddi shunday umummilliy birlashuvning tinch, bunyodkorlik sharoitidagi shakli ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiya, Koreya kabi davlatlarda ham yaqqol namoyon bo'lgan edi.

Milliy g'oyaning hayotbaxsh kuchi nechog'li kudratli ekanligini anglagan Rossiya va qo'shnimiz Qozog'istonda ham hozirgi paytda millatni birlashtiruvchi g'oyani izlash harakati olib borilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, milliy g'oya har bir xalqning o'ziga xos xususiyati, madaniy-tarixiy tajribasi, mentaliteti, o'ziga xos turmush tarzi mantig'idan tug'iladi. Milliy g'oyaning to'g'ri belgilanishi mamlakatni dastavval tinchlik, barqarorlikka, so'ng esa jo'shqin taraqqiyot natijalariga erishtiradi. O'zbekistonda milliy g'oya mohiyatining to'g'ri belgilanganligini yaqin tariximiz yaqqol isbotlab berdi. Yurtimizda tinchlik, barqarorlik o'rnatildi.

Mavzuni o'rganish bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2003.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. -T.: "O'zbekiston", 1997
3. Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. T.7. -T.: "O'zbekiston", 1999.
4. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8. -T.: "O'zbekiston", 2000.
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. –T.: "O'zbekiston", 2000.
6. Karimov I.A. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasidagi so'z boshi. T.9. –T.: "O'zbekiston", 2001.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch –T.: "Ma'naviyat" 2008
8. Otamurotov S.O. Milliy rivojlanish falsafasi (siyosiy-falsafiy qirralari). – Toshkent: Akademiya, 2005.
9. Otamurotov S.O. Globallashuv va millat. – T.: Yangi asr avlodi, 2008.
10. Jo'raev T. Milliy davlatchilik: xavfsizlik va barqarorlik –T.: "Akademiya", 2007 y.
11. Milliy G'oya: nazariy manbalar. –T.: "Akademiya", 2007 y.
12. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. –T.: "Akademiya", 2005 y.
13. Ijtimoiy- falsafiy fanlar: nazariya va amaliyot (ilmiy uslubiy maqolalar to'plami) -T.: "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti" 2008 y.
14. To'raev Sh. Demokratik jarayonlar va milliy g'oya. –T.: "Ma'naviyat", 2008 y.
15. Shodiev G'. Ma'naviyat va yoshlar. –T.: «ABU MATBUOT-KONSALT», 2008.
16. Isoqov B. Ziyoliylik mas'uliyati. –T.: "Ma'naviyat", 2008 y.
17. Saidov H. Matbuot – milliy manfaatlar himoyachisi. –T.: "Ma'naviyat", 2008 y.
18. Nazarov N. Globallashuv sharoitida milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar. –T.: 2005
19. Горенкова А., Пулатова Д. Национальная идея. Пособие для самостоятельного изучения. – Т.: Мухаррир. 2008 г.
20. Xajieva M. O'zbekistonda tolerantlik jarayoni –T.: «ABU MATBUOT-KONSALT», 2008.

Босишга рухсат этилди 19.09.09. Ҳажми 1,2 б.т.
Бичими 60x84 1/6. Адади 100 дона. Буюртма №37
ТошКТИ ризографида кўпайтирилди.

28,1,26,3,24,5,22,7,20,9,18,11,16,13
14,15,12,17,10,19,8,21,6,23,4,25,2,27